

ALLERGIK RINIT, KELIB CHIQISH SABABLARI VA DAVOLASHNING
ASOSIY TAMOYILLARI

Isroilov Abdurashit Maxamatisayevich

Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi maxsus fan o'qituvchisi

Mirzayev Shukrillo Nabijon o'g'li

*Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi maxsus fan
o'qituvchisi*

Mamatov Voxidjon Zoxidjon o'g'li

*Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi maxsus fan
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Allergik rinit (AR) – burun shilliq pardasining surunkali yallig'lanish kasalligi bo'lib, ma'lum ahamiyatga ega allergen ta'sirida yuzaga keladi. Qichishish, aksirish, rinoreya (burundan ko'p ajralmalar kelishi), burun bitib qolishi va ba'zan konyunktivit bilan namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Allergik rinit, intermittirlovchi allergik rinit, persistirlovchi allergik rinit, mavsumiy allergik rinit, yil bo'yi davom etadigan allergik rinit*

Kuz fasli kirib kelishi bilan ko'pchilikda turli surunkali kasalliklar qo'zg'aladi. Shulardan biri — allergik rinit. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining taxminan uchdan bir qismi ushbu xastalikka chalingan. Mazkur kasallik nima sababdan kelib chiqadi? Uni davolash uchun nimalar qilish kerak?

Allergik rinit burun shilliq qavatining yallig'lanish kasalligi bo'lib, immunitetning turli allergenlarga qarshi o'ta kuchli javob reaksiyasi natijasida yuzaga keladi. Bunda tez-tez aksirish, burin oqishi, bitishi, ko'zlar qizarishi va qichishi kabi belgilar kuzatiladi. Allergik rinitning kelib chiqishida irsiy moyillik asosiy omillardan hisoblanadi. Simptomlar ko'pincha o'simlik changi, chang, hayvon juni yoki boshqa allergenlar bilan kontaktda paydo bo'ladi.

Patologiyaning asosida 1-turdagi allergik reaksiya yotadi, uni darhol paydo bo'ladigan reaksiya deb ham atashadi (anafilaktik, IgE ga bog'liq tur). Allergenlar ta'sirida spetsifik antitelolar – immunoglobulinlar E (IgE) sintezi va ularning semiz hujayralar va bazofillarga birikishi sodir bo'ladi. Immunoglobulin E bilan nishonlangan semiz hujayralarning allergen bilan qayta-qayta kontaktda kirishishi bu hujayralarning haddan tashqari faollashuviga va ulardan biologik faol moddalar ajralib chiqishiga olib keladi. Natijada allergik rinit klinikasi paydo bo'ladi

Allergik rinit va uning astmaga ta'sirini o'rganish bo'yicha ishchi guruh (ARIA) tavsiyalarida allergik rinitning tasnifi taklif qilingan bo'lib, u allergik rinitning bemorlar hayot sifatiga ta'sirini baholashga asoslangan:

Intermittirlovchi allergik rinit – simptomlar bemorni haftasiga 4 kundan kam yoki yiliga 4 haftadan kam bezovta qiladi;

Persistirlovchi allergik rinit – simptomlar haftada 4 kundan ortiq yoki yiliga 4 haftadan ortiq bezovta qiladi.

Og‘irlik darajasi bo‘yicha:

Yengil kechishi. Simptomlar minimal darajada ifodalangan, bemorni jiddiy bezovta qilmaydi: uyqu va kunduzgi faollikka ta‘sir qilmaydi, maktabda o‘qish o‘zlashtirishni pasaytirmaydi.

O‘rtacha og‘irlik/og‘ir kechish. Bemorni simptomlar jiddiy bezovta qiladi: uyquning buzilishi, kunduzgi faollik va ish qobiliyatining buzilishi, maktabda o‘zlashtirishning pasayishi.

Shuningdek quyidagilar ajratiladi:

Mavsumiy allergik rinit – shikoyatlar allergen, masalan, gullagan o‘simliklar changi bilan aloqadan keyin bir necha soat ichida paydo bo‘ladi. Pollinoz (changga allergiya) bilan og‘irigan bolalarning 30-40% da bronxial astma rivojlanadi, ko‘pincha bu bahorda, yozda yoki kuzning boshida sodir bo‘ladi.

Yil bo‘yi davom etadigan allergik rinit – simptomlar kuniga 2 soatdan ko‘proq va yiliga kamida 9 oy kuzatiladi, odatda maishiy allergenlarga (uy changi kanalari, suvaraklar, mog‘or) sezuvchanlik (yuqori sezuvchanlik) paytida uchraydi.

Biroq, allergik rinitning bu tasnifida zaif joylari bor. Masalan, dunyoning bir qator mamlakatlarida (O‘rta yer dengizi mamlakatlari, Hindiston va b.) chang-to‘zon yil bo‘yi bo‘ladi. Kanalarga bo‘lgan allergiya ham yil davomida emas, balki faqat ularning maksimal ko‘payish mavsumida – kuz-bahorda avj olishi mumkin.

Allergik rinit ikki bosqichga bo‘linadi:

Qo‘zg‘alish;

Remissiya.

Kasllikning yengil kechishi bilan og‘irigan deyarli barcha bemorlar dori-darmonlar buyurmasdan va shifokor kuzatuviziz ham bu bilan yashash mumkin deb hisoblashadi.

Allergik rinit asoratlari

O‘z vaqtida aniqlanmagan allergik rinit ko‘pincha asorat beradi. Ehtimoliy asoratlari:

Sekretor o‘rta otitlar – o‘rta quloq bo‘shlig‘ida ekssudat (yallig‘lanish suyuqligi) to‘planib borishi va eshitish qobiliyati pasayishi bilan kechadigan o‘rta quloq yallig‘lanishi;

Bodomcha bezlarining gipertrofiyasi (kattalashishi);

Surunkali sinusit – burun qo‘shimcha bo‘shliqlarining yallig‘lanishi;

Burun polipozi

Bu xastalik mavsumiy — bahor va kuz fasllarida avj olishi yoki surunkali, ya‘ni yil davomida kuzatilishi mumkin. Ko‘pincha allergik rinit kon‘yunktivit, bronxial

astma, atopik dermatit kabi boshqa allergik kasalliklar bilan birga kechadi. Allergik rinitni vazomotor rinit, O'RVI va anatomik nuqsonlar tufayli kelib chiqqan patologiyalardan farqlash uchun shifokor bemorning kasallik tarixini chuqur o'rganib, qator tekshiruvlardan o'tishni tayinlaydi. Jumladan, agar xastalik alomatlari ma'lum o'simliklarning gullash davriga mos kelsa, bu mavsumiy allergik rinitga ishora qiladi. Bunday holat o'simliklarning gullash davri bilan bog'liq bo'lmasa, alomatlar doimiy tus olsa va allergenni aniqlash qiyinchilik tug'dirsa, bu surunkali rinitdan dalolat beradi. Shuningdek, burun shilliq pardasi holatini o'rganish uchun otolaringolog tomonidan rinoskopik tekshiruv o'tkazilishi zarur. Aniq tashxis qo'yish uchun qonning umumiy tahlili, bemor terisi va burun shilliq qavatidan namuna olinadi. Aksariyat hollarda yengil shakldagi allergik rinit antigistamin preparatlar yordamida davolanadi. Xastalik og'ir shaklda kechsa, kompleks terapiya belgilanadi. Agar dori vositalariga qarshi ko'rsatmalar yoki ular samarasiz bo'lsa, bemorga desensibilizatsiya, ya'ni allergen ekstrakti dozasini bosqichma-bosqich oshirib teri ostiga yuborish buyurilishi mumkin. Bu amaliyotni bronxial astma va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bo'lgan bemorlarda bajarish mumkin emas. Agar davolash samara bermasa, burunda doimiy shish va nafas olishning qiyinlashishi bilan bog'liq holatlarda otolaringolog ko'rsatmasiga ko'ra bemorga jarrohlik amaliyoti — quyi burun bo'shlig'ining vazotomiyasi belgilanishi mumkin. Mavsumiy allergik rinit aynan kuzda qo'zg'alishining sababi shundaki, bu vaqtda havoda zamburug' sporalari, o'simliklar changi ko'p miqdorda bo'ladi. Odatda, bu xastalik insonning kundalik hayotiga jiddiy ta'sir qilmaydi, ammo u og'ir shaklda kechsa, bemorda uyquning buzilishi, ish qobiliyatining pasayishi kabi alomatlar kuzatilishi mumkin. Kasallik profilaktikasi uchun eng samarali chora — allergenlar bilan aloqaga kirishishdan maksimal darajada saqlanish. Masalan, allergen bo'lib uy hayvoni yungi xizmat qilsa, uni uyda saqlashdan voz kechgan ma'qul. Allergik reaksiya o'simliklar changi va zamburug' sporlariga bo'lgan holda uyda va ish joyida havo tozalash tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Agar allergik rinitni uy anjomlari va jihozlari qo'zg'atsa, ularni tez-tez tozalash va almashtirish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Terapiya" M.F.Ziyayeva
2. "Klinik Allergologiya" O.A.Nazarov
3. www.ZiyoNet.uz
4. Internet ma'lumotlari